

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlanlantirish yo'llari	11
Mirjamilova Hulkar Nurali qizi , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish	15
Alimov Murodkosim Achilovich , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili	20
Umarov Faxriddin Umar o'g'li , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati	26
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi	31
Abduvakil Alimov Komil o'g'li , tayanch doktorant	
Ta'lif turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
Maxmudova Nodira O'ktamovna , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari	43
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari	46
Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlanlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari	57
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	62
Olikulova Feruza Mansurovna , PhD; Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
Султанходжаев Баҳтиёр Забиҳуллаевиҷ	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlanlantirish strategiyasi	73
Usmonov Botir , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish	78
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds	87
Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies	92
Shakhzod Saydullaev , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi	101
Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich , i. f. d. (DSc); Eshqulova Nasiba Normo'minovna , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lif kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
Eldor Uskanov , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish	114
Maxmudov Nosir Maxmudovich , professor; Elmurodov Faxriddin Farxodovich , magistratura tinglovchisi	



Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari	120
Ergashev Otamurod Toshtemirovich , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar	125
Ermatov Musojalil Komilovich , kafedrasi dotsenti v. b.; Abdunazarov Oybek Abdumutlibovich , katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach	132
Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
Akobirova Nodira Najmuddin qizi , asisstant	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
Alimova Guzal Alisherovna , PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari	146
Jo'rayeva Sevara Zakirovna , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	152
Kamilova Iroda Xusniddinovna , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability	156
Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslashning nazariy asoslari.....	163
Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
Nabiiev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept	175
Otakulov Makhamadjon , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari	181
Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida	185
Sadikova Ra'no Abdullayevna , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy assosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish	188
Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni	191
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li , dekan o'rinosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari	203
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich , dotsent; Adilbekov Allayar Anvarbekovich , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni	206
Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
Алиева Надирахон Абдумаликовна , PhD. доц.; Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
Z. G. Allaberganov , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
Asatullayev Xurshid Sunatullayevich , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
Axmedova Yulduz Sunatullayevna , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari	232
Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna , kafedra dotsenti	



Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish .236 Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'satkichlari.....242 Berdiev Akram O'ktamovich , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi253 Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari258 Botirov Erkinjon Xayitovich , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqali investitsion salohiyatni oshirish263 G'aybullayev Odil Baxtiyarovich , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish269 Jubanova Bayramgul Aymuratovna , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari.....272 Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish.....278 Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari284 Qurbanova Shaxrinoz , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar288 Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari292 Mamirjon Jalollidinov , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала297 Муминов Шохжакон Суюнович , ассистент кафедра	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана302 Муяддинов Махмуд Жалелович , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны.....307 Назарова Гузал Баходировна	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari.....312 Nozima Abdullayeva , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....316 Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках.....326 Тажимуратов Умид Рузматович , Бахриев Иброхим Исометдинович , кандидат медицинских наук, доцент; Жуманиёзов Эркин Худойберганович , кандидат медицинских наук, доцент; Тажимуратов Рузмат Отажанович , кандидат медицинских наук, Тажимуратов Абдусами Умид угли , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili333 Temirov Abdulaziz Alimjanovich , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....339 Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.....345 Tosheva Ziroat Aliqul qizi	



Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari	349
To'rayeva Nafisa Odilovna , mustaqil izlanuvchi	
O dostizheniyaх Uзbekistana v realizatsii naionalnyx celей i zadach ustoychivogo razvitiya.....	355
Tursun Muxitovich Ahmedov , i. ф. д., prof.; Gavhar Rustamovna Xidirova , doktorant, i. ф. ф. д., doz.	
Vliyanie korporativnogo upravleniya v zelenoy ekonomike	359
Urinov Bobur Nasilloevich , zavedeyuchiy kafedroy	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlari.....	374
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari.....	382
Xayriddinov Sh. B. , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari	385
Xolov Nabijon Qaxramonovich , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari	391
Xusanov Otabek Nishonovich , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadlilagini oshirish yo'llari.....	396
Elbusinova Umida Xamidullayevna , kafedra dotsenti	
Osobennosti metodiki provedenia audita затрат на производство.....	401
Хилола Икрамова Ровшан кизи , bazovyj doktorant	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni	407
Bekdavlat Aliyev	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	412
O'ktamova Nozima Narzulla qizi , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari	416
Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiylaridagi umumiylilik va xususiylik.....	420
Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития	431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari	440
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich , iqtisodiyat fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'naliishlari va uning huquqiy asoslari	446
Bobirjon Aktamov , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
Axmedov Sayfullu Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	



DAVLAT FISKAL (BYUDJET-SOLIQ) SIYOSATINING AHOLO BANDLIGIGA TA'SIRI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

Asatullayev Xurshid Sunatullayevich

Toshkent moliya instituti "Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri, i. f. n., professor

Annotatsiya: Har qanday davlatning asosiy maqsadi aholi turmush farovonligini ta'minlash orqali iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iborat. Lekin, bunga o'z-o'zidan erishib bo'lmaydi, buning uchun davlat tomonidan oqilona iqtisodiy siyosat ishlab chiqish zarur qilib qo'yadi. Jamiyat iqtisodiy o'sishiga erishishda va aholi bandligini ta'minlashda davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining ustuvor yo'nalishlarini tadqiq etish dolzarb mavzulardan biri sanaladi. Chunki davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosati davlat moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy faoliyoti oshirishga va iqtisodiyotdagi muammolarni barataraf etishga qaratilgan bo'ladi. Uning asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy sikk tebranishlarini va infliyatsiyani jilovlash hamda yuqori bandlik darajasiga erishish hisoblanadi. Maqolada davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining iqtisodiy dastaklaridan oqilona foydalanish orqali aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy amaliy tahlil va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosati, bandlik, moliya, davlat byudjeti, davlat byudjeti xarajatlari, davlat byudjeti daromadlari, byudjet taqchilligi, iqtisodiy sikk, soliqlar, soliq imtiyozlari.

Abstract: Development helps to ensure the standard of living based on the main goal of any country. But it cannot be achieved on its own, for this it is necessary to get out of government aid by helping oneself. One of the topics that should be emphasized is the strong direction of the government fiscal (budget-tax) means in achieving the growth of public safety and ensuring safe employment. Focused on the production of educational activities and elimination of problems in the product from the relevant resources according to the modern (budget-tax) government standard. Its main objective is to curb inflationary fluctuations and achieve a high level of employment. The article presents scientific practices and conclusions aimed at ensuring the safe use of the support levers of the state fiscal (budget-tax) software.

Key words: Government fiscal (budget-tax) policy, employment, finance, state budget, state budget expenditures, state budget revenues, budget deficit, economic cycle, taxes, tax benefits.

Аннотация: Основной целью любой страны является достижение экономического развития путем обеспечения благосостояния населения. Но этого невозможно достичь само по себе, для этого необходимо разработать разумную экономическую политику государства. Одной из актуальных тем является исследование приоритетов государственной фискальной (бюджетно-налоговой) политики в достижении экономического роста общества и обеспечении занятости населения. Потому что государственная фискальная (бюджетно-налоговая) политика направлена на повышение экономической активности и устранение проблем в экономике за счет рационального использования государственных финансовых ресурсов. Её основная цель – сдерживание колебаний экономического цикла и инфляции, направленное на обеспечение устойчивого экономического роста и достижение высокого уровня занятости. В статье приведены научно-практический анализ и выводы, направленные на обеспечение занятости населения за счет рационального использования экономических рычагов государственной фискальной (бюджетно-налоговой) политики.

Ключевые слова: Государственная фискальная (бюджетно-налоговая) политика, занятость, финансы, государственный бюджет, расходы государственного бюджета, доходы государственного бюджета, дефицит бюджета, экономический цикл, налоги, налоговые льготы.

KIRISH

Xalqaro mehnat tashkiloti ekspertlari tomonidan e'tirof etilishicha, dunyodagi vaziyat, iqlimning o'zgarishi, tabiiy resurslar taqchilligi, davlatlar o'rtaсидаги ziddiyatlar 2023-yilda global iqtisodiy o'sishning sekinlashishini hamda aholining eng kam ish haqi va ijtimoiy himoyasi kafolatlanmagan mehnat sharoitlarini qabul qilishga majbur bo'lishiga olib kelishi mumkin. Mayjud holat esa xalqaro mehnat tashkiloti ekspertlari yangi hisobotida, bu pandemiya tufayli allaqachon kuchaygan tengsizlikni yanada ortishiga sabab bo'ladi [1]. Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkilotining "Jahonda bandlik va ijtimoiy himoya istiqbollari: 2023-yilga mo'ljallangan tendensiyalar" nomli hisobotida, joriy yilda global bandlik o'sish darajasi 1,0 foizni tashkil etishi bashorat qilinmoqda. Dunyo



bo'ylab ishsizlar soni ko'rsatkichi esa 2023-yilda 208 millionga yetishi hamda global ishsizlik darajasi 5,8 foizga ortishi kutilmoqda. Bunday salbiy tendensiyaning kutilishi ko'p jihatdan yuqori daromadli rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchi taklifining qisqarishi bilan bevosita bog'liq^[2].

Ma'lumki, pandemiya tufayli iqtisodiy faoliytni to'xtashi, ko'plab ish joylarining yopilishiga va aholi turmush sharoitining qiyinlashganligi aksariyat mehnat migrantlarining mamlakatimizga qaytib kelishi ishsizlar sonining ortishiga olib keladi. Aholi bandligining ta'minlashmasligi o'z navbatida ishsizlik darajasining o'sishi va aholi daromadlarining pasayishiga olib keldi. Shu bois, davlat tomonidan faol tadbirkorlikni rag'batlantirish, investition iqlim va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash orqali yangi ish o'rinnarini yaratishga qaratilgan izchil iqtisodiy siyosat olib borilmoxda. Bunga O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "2022–2026-yillarga mo'jallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni, "Kasanachilikni rivojlantirish asosida aholi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-apreldagi PQ-214-son qarori, "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari faoliyati samaradorligini yanada oshirish bo'yicha namunaviy konsepsiyanı tasdiqlash to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-avgutdagagi 450-son qarori, "Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qo'llab-quvvatlash va ularning bandligiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-sentyabrdagi 450-son qarori, "Yoshlarning bandligiga ko'maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PF-61-son Farmonlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Shuningdek, respublikada har yili aholi bandligini ta'minlash bo'yicha tasdiqlanadigan dasturlarni amalga oshirish, bo'sh va kvotalanadigan ish o'rinnariga ishga joylashtirish bo'yicha davlat byudjeti tomonidan mablag'lar hamda hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan aholi bandligini ta'minlashga hissa qo'shadigan tadbirkorlik sektori uchun turli soliq imtiyozlari berilmoxda. Ammo, hududlardagi mehnat bozorida hali-hamon yuqori darajada keskinlik saqlanib qolmoqda, doimiy ish o'rinnarini tashkil etish, yoshlar, xotin-qizlar, kam ta'minlangan oilalar a'zolari bandligini, ayniqsa, qishloq joylarda ta'minlash, shuningdek tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish masalalarida muammolar uchramoqda. Bu albatta davlat iqtisodiy siyosatlaridan bo'lgan davlat fiskal siyosatini iqtisodiy faoliytni oshirish omillaridan sanalgan aholi bandligini ta'minlashdagi mexanizmini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, davlat byudjeti xarajatlarini oqilona taqsimlash va soliq stavkalarini hududlar rivojlanish darajasiga ko'ra faoliyka olib keluvchi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish hamda shu orqali aholi bandligini ta'minlash muhim dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MATERIAL VA METOD

Ma'lumki, dunyodagi hali hanuz ro'y berayotgan tahlikali xavf va ziddiyatli holatlar sharoitida davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligi hamda turmush farovonligini ta'minlashga qaratilgan jihatlarini keng tadqiq etilgan. Ma'lumki, iqtisodiyot fan tarixida aksariyat iqtisodiy maktob namoyondalari tomonidan davlat g'aznasi va soliqlar orqali aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan nazariy g'oyalari shakllangan. Lekin, klassik iqtisodiy maktabiga muqabil ravishda angliyalik iqtisodchi olim J. M. Keyns o'zining dunyoga mashhur bo'lgan "Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiyyatini nazariyasini" asarida zamonaliv bozor iqtisodiyoti iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qodir emas, barqaror iqtisodiy o'sishni va aholi to'liq bandligini ta'minlash uchun iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish zarur, deb ko'rsatadi. Davlat tomonidan tartibga solish vositalaridan biri bu davlat daromadlari va xarajatlarini o'zgartirish orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadigan fiskal siyosatdir^[3]. Shuningdek, u bozor iqtisodiyotining ikkita muhim muammolarini ya'ni daromadlarning adolatsiz taqsimlanishi va to'liq bandlikni ta'minlashning imkoniyati yo'qligini ko'rsatadi. Jamiyat rivojlanishdan to'xtamaydi, iqtisodiyot yangi o'sish darajasiga o'tadi, lekin mehnat bozori bilan bog'liq muammolar dolzarbligini yo'qotmaydi. Shunday ekan, bandlik sohasidagi davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bu ishchi kuchiga bo'lgan talabni kengaytirish, bandlikka ko'maklashish, mehnat bozori talablariga muvofiq mehnat resurslaridan samarali foydalanishni qo'llab-quvvatlashdan iborat^[4].

Garvard iqtisodiyot maktabi vakili P. Samuelson fiskal siyosatni quyidagicha talqin qiladi, uning fikricha, fiskal siyosat davlat soliqqa tortish va davlat xarajatlarini o'rnatish jarayonida iqtisodiyot sikl tebranishlarini yumshatishga hamda haddan tashqari yuqori inflyatsiya va deflyatsiyadan sur'atlaridan holi bo'lgan yuqori bandlikka erishishiga yordam berishi kerak. Shuningdek, davlat xarajatları va soliqlarga bog'liq bo'lgan fiskal siyosatning maqsadi pul kredit siyosati bilan uyg'un holda iqtisodiyotda yuqori bandlikni hamda narxlarning inflyatsiyaga bog'liq bo'lmagan holat jarayonini ta'minlash asosiy maqsadidir^[5].

Fiskal siyosatning mazmuniga bo'lgan nazariy qarashlar ana'nnaviy keyinchalik qarashlarini MDH iqtisodchi olimlaridan T. A. Agapov, S. F. Sereginlar qo'llab quvvatlashadi. Ular byudjet-soliq siyosati va fiskal siyosat hukumatning davlat byudjeti xarajatları va soliqlarni o'zgartirish orqali to'liq bandlikni ta'minlash, to'lov balansi muvozanatligiga erishish hamda inflyatsion bo'lmagan yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishida iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar" deb tushunadilar^[6].



Aholi bandligini ta'minlash har doim ham dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, global pandemiya sharoitida bandlik masalasi global muammolardan biri ekanligini yana bir bor ko'satdi va bu borada yanada ko'proq ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishni taqozo etmoqda.

Iqtisodchi olimlarimizdan A. O'Imasov va A. Vahobovlar fikricha "Bandlik mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan va mehnat qilishga ishtiyogi bor kishilarni ishga joylashib, foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishlari" [7]. A. G. Gryaznov bandlikni ish joy bilan ta'minlash va xo'jalik faoliyatida ishtiroki bilan bog'iqliq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar to'plami deb ataydi. Uning fikricha, bandlik moddiy omillar ishlab chiqarishga taalluqli iqtisodiy faol aholini tasvirlaydi. Bandlikda jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi hamda iste'mol qiluvchi kuchlari o'zi namoyon qiladi. Chunki, undagi ishlab chiqarishning obyektiv sharoitiga munosabat, jami aholining takror ishlab chiqarish sharoiti hisoblanuvchi mehnatkashlar yashashlari uchun mablag'lar olish vositasi bo'lib xizmat qiladi [8].

Mazkur tadqiqotlarning natijalari, ulardagи ilmiy asoslangan takliflar, amaliy tavsiyalar va xulosalarga qo'shilgan holda aytish joizki, aholini ish bilan bandligini ta'minlashda davlat fiskal siyosatining o'rni hamda ta'siri masalasi tadqiq etish, ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hisoblanadi.

NATIJALAR

Aksariyat ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan rivojlangan mamlakatlarda bandlik sohasidagi faol siyosat asosan to'liq, samarali va erkin tanlov bandligiga erishish hisoblanadi. Shuningdek, bandlik sohasidagi siyosatda davlat iqtisodiy taraqqiyotiga bandlikka erishish va boshqa iqtisodiy ijtimoiy maqsadlarni ruyobga chiqarishga xizmat qilishi lozim. Bunga erishishda albatta real amaliyotdan kelib chiqib davlat manfaatlarini hisobga olgan holda va mamlakat milliy xususiyatlarini ham hisobga olishi zarur. Bunday harakatlar davlat, ish beruvchilar va ishga yollanayotganlar bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi kerak. Davlatning asosiy vazifasi mehnat bozorida hamkorlar o'zaro munosabatlarini tartibga solish va nazorat qilishdan iborat.

Davlat aholining to'liq, samarali va erkin tanlov asosidagi bandligini ta'minlashda quyidagi maqsadlarni amalga oshiradi:

- mehnat resurslarining faolligini oshirish, vaqtinchalik va mustaqil bandligini ta'minlash, mehnat ish faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqa choralarini ko'rish, ish o'rinalarini saqlab qolish tizimini rivojlanish hamda ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishga yo'naltirilgan soliq, investitsiya va moliya-kredit chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;
- fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini davlat kafolati ostida bandlik sohasida huquqiy tartibga solish hamda bandlik to'g'risidagi qonun hujyatlarini yanada takomillashtirish;
- ishsiz deb tan olingen fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

Bandlik siyosatida aholining mehnatga layoqatli va ishslashni xohlagan qismini ish bilan ta'minlash va shu orqali ularning iqtisodiy jihatdan ta'minlash imkoniyatini yaratishni ko'zlaydi. Davlat mana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatda yangi ish o'rinalarini yaratish, mavjud ish o'rinalidan samarali foydalanib bandlikni oshirishga harakat qiladi. Yangi ish o'rinalarini yaratgan korxonalarga soliqdan imtiyozlar yoki subsidiyalar beriladi. Shuningdek, yangi ish o'rnini yaratib, uni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlab, mehnat unumdorligini va shunga ko'ra daromadlarini oshirishga erishishni rag'batlantiradi. Bandlik muammosining keskinligiga qarab uni hal etishning u yoki bu yo'liga ustuvorlik beriladi. O'zbekistonda bandlik siyosatida yangi ish o'rinalarini yaratishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohalari, dehqon va fermer xo'jaliklarida ish o'rinalarini yaratishga ustuvorlik beriladi. O'zbekistonda maxsus bandlik fondi mablag'lari hisobidan ish o'rinalari yaratiladi, ishsizlarga nafaqa beriladi va ular yangi kasblarga o'rgatiladi. Davlat hisobidan moliyalashtiriladigan fondlar mablag'lari ham yangi ish o'rinalarini yaratishga yo'naltiriladi.

Milliy iqtisodiyotda davlat fiskal siyosatining tarkibiy qismlaridan sanalgan soliqlar quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

- davlat xarajatlarini moliyalashtirish (fiskal vazifikasi);
- milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash;
- ijtimoiy tanglikni yumshatish (ijtimoiy vazifikasi);
- iqtisodiyotni tartibga solish (tartibga solish vazifikasi);
- iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish.


Fiskal siyosat oldiga qo'yilgan maqsadidan kelib chiqib, uning iqisodiy o'sishni rag'batlantirish, barqarorlashtirish va iqtisodiy faoliyatni chegaralash siyosatlari ajratiladi. Iqtisodiy o'sish maqsadlaridan kelib chiqilgan fiskal siyosat bandlik darajasini va shu orqali YaMM real hajmini oshirishga qaratiladi. Bunda rag'batlantiruvchi fiskal siyosatning dastaklari davlat xarajatlarining o'sishi va soliq stavkalarining pasayishi hisoblanadi. Davlatning byudjet barqarorligini ta'minlashga qaratilgan moliyaviy siyosat iqtisodiy inqiroz yoki turg'unlik davrida byudjet taqchilligini bartaraf etish maqsadlariga qaratilishi zarur.

Davlatning iqtisodiy faoliyikni cheklash siyosati real YaMM hajmining potensial darajasidan keskin farq qilishini kamaytirishga yo'naltirilib, bu ayni vaqtida iqtisodiy o'sish va uning tanazzuli davrlarida inflyatsiya va ishlab chiqarishdagi inqirozli jarayonlardan qochishga qaratiladi.




Iqtisodiyotning sikli rivojlanishini tartibga solish orqali makroiqtisodiy muvozanatlilikni ta'minlab borishga qaratilgan fiskal siyosat bir qator moliyaviy vosita va iqtisodiy dastaklar yordamida amalga oshiriladi. Qo'llaniladigan bu barcha moliyaviy vosita va dastaklar birgalikda tartibga solishning moliyaviy mexanizmini tashkil qiladi.

Davlatning fiskal siyosatiga, milliy xo'jalikda tashkil qilingan soliq tizimi javob berishi va u iqtisodiyotdagi ichki o'zaro munosabatlarni samarali tartibga solishi zarur. Respublikada davlatning fiskal siyosati: "... harajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlagan holda Davlat, byudjetining barcha miqyoslarida muvozanatni saqlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo'naltirilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish"ga qaratilishi maqsadga muvofiq^[9].



1-rasm: Davlat fiskal siyosatining iqtisodiy o'sish va bandlikka ta'siri^[10]

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, 2000–2022-yillarda davlat sarf xarajatlari va daromadlarining o'zgarish tendensiyasini tahlil qiladigan bo'lsak, davlat byudjeti xarajatlari va daromadlarining o'zgarishi real YalMning o'sish sur'atlari bilan mutanosib ravishda o'zgarish tendensiyasiga ega bo'lган. 2000-yilda davlat byudjeti daromadlari YalMga nisbatan 28,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib esa, 22,7 foizga pasaygan. Xuddi shu tarzda davlat byudjeti xarajatlari 2000-yilda YalMga nisbatan 29,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 26,6 foizga kamaygan. Mamlakatimizda real YalMning o'sish sur'atlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2000–2022-yillardagi eng past tendensiya 2000, 2020-yillarda kuzatilgan. 2020-yilda esa mazkur ko'rsatkich iqtisodiy pandemiya holatiga qaramasdan 1,6 foizga o'sishi ta'minlangan. Real YalMning eng yuqori o'sish sur'atlari 2010, 2015 va 2016-yillarda kuzatilgan, bunda o'sish sur'ati o'rtacha 8,0 foizlik darajani tashkil etgan. Shunga mos ravishda davlat byudjeti daromadlari va davlat byudjeti xarajatlari esa YalMga nisbatan qariyib 21,0 foizlik darajalarini tashkil etgan. Davlat byudjeti xarajatlari va daromadlarining o'zgarireshining aholi bandligiga ta'siri tahlili 2 rasmida yanada yaqqolroq ko'ringan.




2-rasm: Davlat byudjeti xarajatlari va daromadlarining bandlikka ta'siri^[11]



E'tibor qaratadigan bo'lsak, 2000–2022-yillarda davlat byudjeti xarajatlari va daromadlari hamda aholi bandligiga ta'siri bir-biriga nisbatan mutanosib ravishda o'zgargan. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari eng yuqori salmoqqa ega bo'lgan davr 2000-yilda kuzatilgan, ya'ni 28,5; 29,6 foizni tashkil etgan va shunga mos ravishda aholi bandlik darajasi esa 69,4 foizga yetgan. Qiziqarlisiga yana shunday yuqori bandlik darajasi 2015–2017-yilda ham kuzatilgan. Aholi bandlik darajasining eng past salmoq darajasi 2020-yilda kuzatilgan. Albatta, bu pandemiya bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da 2019-yilga nisbatan 2,1 foizga kamaygan. Aholi bandlik darajasining 2019-yildagi salmoq ko'rsatkichga nisbatan oladigan bo'lsak, 2021–2022-yillarda ham mazkur ko'rsatkich darajasiga yetmagan.

Ta'kidlash o'rinni, O'zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotini yanada mustahkamlashda hamda yuzaga chiqayotgan iqtisodiy muammolarni barataraf etishda samarali davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatini amalga oshirish bugungi kun talablaridan biri ekanligini yana bir bor real amaliy hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Ma'lumki, dunyo iqtisodiyotida global iqtisodiy o'sish 2023-yilda 1,7 foizgacha sekinlashishi prognoz qilinmoqda, bu so'nggi 30 yildagi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, faqat 2009 va 2020-yillardagi global inqiroz davrida ortda qolmoqda. Ushbu pasayish qisman yuqori inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun monetar siyosatning qat-tiqlashishi bilan bog'liq bo'lib, bu inflyatsiyaning o'sishi, pul kursining keskinlashuvi yoki moliyaviy tartibsizliklar kabi salbiy zARBalar global iqtisodiyotni tanazzulga olib kelishi mumkin. Bunday global inqiroz va qarz inqirozi xavfini kamaytirish uchun shoshilinch choralar ko'rish kerak bo'ladi. Bundan tashqari, hukumatlar aholining zaif qatlamlariga yordam ko'rsatilishini, inflyatsiya kutilmalari barqaror bo'lishini va moliyaviy tizimlarning barqarorligini ta'minlashi kerak [12].



3-rasm: Dunyo bo'yicha ishsizlik darajasining o'sish tendensiyasi [13]

Dunyo mehnat bozoridagi vaziyatning bunday tarzda yomonlashuvining sabablari quydagilardan iborat:

- davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar geosiyosiy keskinlikning kuchayishi;
- pandemiyadan so'nggi iqtisodiy tiklanishning notekisligi;
- global ta'minotdagi muammolarning davom etayotganligi.

Ta'kidlash o'rinni, yuqorida keltirilgan omil sabablar uyg'unlikda stagflyatsiya uchun shart-sharoit yaratdi, ya'ni bir vaqting o'zida inflyatsiya sur'atining o'sishi va iqtisodiyotning sekinlashishi yuz beradi. Bunday vaziyat dunyo bo'yicha 1970-yildan beri birinchi marta kuzatilmoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti tadqiqotlar faoliyati departamenti direktori Richard Samens "Global bandlik o'sish darajasining sekinlashishi Covid-19 pandemiysi davridagi yo'qotilganlarni tiklanishini 2025-yilga qadar kutmaslikni anglatishini ta'kidladi". Shuningdek, uning fikricha to'lov qobiliyati, ekologik barqarorlik va aholi turmush farovonligiga o'zarbo'lgan hamda o'tgan inqirozlarni hal etishda muhim ahamiyatga molik bo'lgan ishlab chiqarish darajasi o'sishini sekinlashishi juda katta tashvish uyg'otadi [14].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, mamlakatimizda yangi ish o'rinalini tashkil etish sohasidagi davlat fiskal siyosati ishsizlikni qisqartirish va aholining ijtimoiy zarur mehnat bilan bandligini ko'paytirish bo'yicha xorijiy davlatlar singari aniq usullar asosida takomillashtirilishi kerak. Buning uchun quydagi tadbirlarni e'tiborga olish zarur deb o'yaymiz: davlat tomonidan iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarni rag'batlantirish, bu esa yangi ish joylarini yaratishning asosiy sharti hisoblanadi;



Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimizda aholini ish bilan bandligini ta'minlashda davlat fiskal siyosatini takomillashtirish zarur qilib qo'yadi. Shunga quyidagi larni hisobga olish maqsadga muvofiq:

1. Aholini ish bilan bandligini oshirishda, eng avvalo, hududlardagi ishsizlik darajasidan kelib chiqib davlat byudjeti mablag'larini samarali yo'naltirish hamda amalda uning bajarilishini qat'iy nazorat qilish lozim.
2. Respublikada mavjud yashirin iqtisodiyot darajasini kamaytirish va unga qarshi kurashishda turli byurokratik yo'llar bilan emas, balki hududlar rivojlanish salohiyatiga ko'ra soliq imtiyozlarini qo'llash zarur.
3. Hududlarda yangi ish o'rinalarini yaratgan yirik va kichik biznes subyektlariga soliq imtiyozlarini qo'llash borasida rivojlangan mamlakatlar amaliy tajribalaridan foydalanishni yo'nga qo'yish kerak.
4. Kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikda investitsion faoliytni rag'batlantirish asosida shart-sharoitlar yaratish, tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq ishsiz qolgan yoki ishidan ajralib qolish xavf solayotgan shaxslarning ish izlashlarini faollashtirish maqsadida kasbga o'qitish, qayta tayyorlash va ularga axborot-konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. <https://news.un.org/ru/story/2023/01/1436632> МОТ – о перспективах на 2023 год: людям придется соглашаться на худшие условия труда
2. https://www.ilo.org/moscow/news/WCMS_865541/lang--ru/index.htm. Экономический спад может вынудить работников соглашаться на менее качественные рабочие места.
3. Кейнс, Д. М. Общая теория занятости / Д. М. Кейнс ; пер. Т. А. Колосова, В. В. Качалин, А. Ф. Кандель. – Москва: Директ-Медиа, 2007. – 13 с.
4. Лохтина Т. Н., Метелица В. И. Рынок труда и социально-экономические проблемы населения России // Вестник Евразийской науки, 2019. №1. URL: <https://esj.today/PDF/29ECVN119.pdf>.
5. Самуэльсон П. Экономика: пер. с англ. / П. Самуэльсон. – М., 1997. – С. 315–316.
6. Агапова, Т. А. Макроэкономика : учебник / Т. А. Агапова, С. Ф. Серёгина ; под ред. А. В. Сидоровича ; МГУ им. М. В. Ломоносова. 6-е изд., стер. М., 2004. С. 115.
7. Olmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – Т.: Iqtisod-moliya, 2014. – 424 б.
8. Шуваева Е. В. Занятость как важнейший элемент трудовых отношений // Актуальные вопросы экономических наук : Материалы международ. науч. конф. – Уфа : Лето, 2011.
9. Mirziyoyev Sh. M. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi. www.lex.uz
10. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika agentligi ma'lumotlari.
11. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika agentligi ma'lumotlari.
12. Второй год резкого замедления темпов роста. <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/publication/global-economic-prospects>.
13. https://www.inform.kz/ru/bezrabitnyh-v-mire-stanet-bol-she-na-3-mln-chelovek-v-2023-godu-mot_a4031860/ Безработных в мире станет больше на 3 млн человек в 2023 году – МОТ.
14. <https://neg.by/novosti/otkrytj/mot-o-situatsii-na-globalnom-rynke-truda-v-2023-godu/> МОТ о ситуации на глобальном рынке труда в 2023 году.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.